



**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***  
к договору (контракту) от 17.08.2022 г. № 75-2-41-ОВ/2022

между "ORIENT XAUS STROY MARKET" МСНЖ и Шофиркон туман Ободонлаштириш бошкармаси на общую сумму 103340000

Глава \_\_\_\_\_ 110  
Казначейский лицевой счёт \_\_\_\_\_ 100022860062587065200110004

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4252110			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август	103 340 000,00			103 340 000,00
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Всего за год</b>	<b>103 340 000,00</b>			<b>103 340 000,00</b>

Всего 103340000 сум

Бир юз уч миллион уч юз кирк минг сўм 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 31002000 сум или 30,00%\*\*\* от общей суммы договора подлежат предоплате в Август мес. 2022 г.

(\*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный \_\_\_\_\_% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до \_\_\_\_\_ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



(подпись)

Якубов Халим Махмудович

Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

(подпись)

Аъзамов Исок Камолович

Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения \_\_\_\_\_

(подпись)

Получил работник заказчика \_\_\_\_\_

(подпись)

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ г.

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ г.

# OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

17«8»2022 yil.

75-2-41-OB/2022-son

"ORIENT XAUS STROY MARKET" MCHJ (keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb yuritiladi), o'zining nizomi, asosida ish yurituvchi direktori **S.Xotamov** bir tomondan va **Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi** (keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb yuritiladi), o'zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari **H.Yakubov** ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

## 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga asosan **Sotuvchi** sotib oluvchiga quyida ko'rsatilgan miqdor va narxda **tovar (maxsulot) yetkazib berish majburiyatini** oladi, **Sotib oluvchi** esa o'z navbatida **tovarni (mahsulotni) qabul qilib olib haqqini to'lash majburiyatini** oladi:

№	Tovar (Mahsulot) nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi	Bahosi
1	Задвижка D160	dona	2	3 400 000	6 800 000
2	Задвижка D110	dona	10	2 100 000	21 000 000
3	Фланец стальной D160	dona	24	50 000	1 200 000
4	Фланец стальной D110	dona	48	40 000	1 920 000
5	Колодец	komp	18	3 800 000	68 400 000
6	Труба стальная электросварная D110	metr	8	150 000	1 200 000
7	Труба стальная электросварная D160	metr	4	180 000	720 000
8	Фланцевый адаптер D110	dona	24	50 000	1 200 000
9	Фланцевый адаптер D160	dona	12	75 000	900 000
	JAMI				103 340 000

1.2 Mazkur shartnomaga asosan yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan tovar (mahsulot)ni yetkazib berish muddati: 2022-yil 10-sentyabrgacha.

## 2. TO'LOV SHARTLARI

2.1. Ushbu shartnomaning umumiy summasi QQS bilan 103 340 000 (**Bir yuz uch million uch yuz qirq ming**) soʻmni tashkil etadi.

2.2. Sotib olinadigan Tovar (mahsulot) uchun oldindan toʻlov miqdori **31 002 000** soʻmni, yaʼni belgilangan summaning 30 foizini tashkil qiladi va bu oldindan toʻlov shartnoma tomonlar tomonidan imzolanganidan keyin 15 bank ish kunida amalga oshiriladi. Yakuniy toʻlovning miqdori esa **72 338 000** soʻmni, yaʼni kelishilgan summaning 70 foizini tashkil etadi va bu yakuniy toʻlov hisob-faktura (yoki ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat) taqdim qilingandan soʻng 30 bank ish kunida amalga oshiriladi.

2.3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24-avgustdagi 241-sonli qarorining 1.1. bandida "Budjet tashkilotlari va budjet mablagʻlari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish boʻyicha summasi bir milliard soʻmgacha tuziladigan shartnomalarida 30 foiz miqdorida oldindan toʻlovni amalga oshirish nazarda tutilgan".

2.4. Toʻlov shakli **naqd pulsiz pul koʻchirish yoʻli** bilan amalga oshiriladi.

### **3. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

#### **3.1. Sotuvchining huquqlari:**

- sotilgan tovar haqini toʻlashni;
- tovarni oʻz vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnoma shartlariga toʻliq rioya etishni;
- sotib oluvchi tomonidan oʻziga yetkazilgan zararlarning qoplanishini talab qilish.

Sotib oluvchi qonun hujjatlarida belgilangan asoslarsiz mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchidan tovarni qabul qilib olmagan yoki tovarni rad etgan hollarda mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi sotib oluvchidan tovar haqini toʻlashni talab qilishga haqli.

#### **3.2. Sotuvchining majburiyatlari:**

- tovarni sotib oluvchiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada koʻrsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;
- shartnomada koʻrsatilgan sifatdagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi boʻlgan tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni sotib oluvchiga idishda yoki oʻralgan holda topshirish;
- tovarni sotib oluvchiga topshirgunga qadar saqlash.

#### **3.3. Sotib oluvchining huquqlari:**

- sotib olayotgan tovarni oʻziga mulk qilib topshirishni;
- shartnomada koʻrsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;
- shartnomada koʻrsatilgan sifatdagi tovarni topshirishni;
- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi boʻlgan tovarni topshirishni talab qilish.

#### **3.4. Sotib oluvchining majburiyatlari:**

- sotib olgan tovar haqini oʻz vaqtida toʻlash;
- tovarni oʻz vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga toʻliq rioya etish;
- sotuvchiga yetkazilgan zararni qoplash.

Sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va oʻralishi toʻgrisidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga oʻn kun muddat ichida malum qilishi shart.

### **4. TOVARLARNI YETKAZIB BERISH TARTIBI**

- 4.1. Tovarlar tomonlar kelishuviga koʻra sotib oluvchining omboriga yetkazib beriladi.
- 4.2. Yetkazib beruvchi tovarlarni maxsus himoyalangan idishlarda yetkazib beradi
- 4.3. Tovarni topshirish, qabul qilish joyi sotib oluvchining ombori hisoblanadi.
- 4.4. Tovarni topshirish muddati avans toʻlangan kundan boshlab 5 ish kunini tashkil qiladi.
- 4.5. Sotib oluvchiga yetkazib berilgan mahsulot uchun barcha tegishli hujjatlarni taqdim

etgan holda hisob-varaqni rasmiylashtirish sanasi sotib oluvchi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

4.6. Ushbu shartnomaning barcha shartlari kalendar kunidan keyingi kun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqea sodir bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

## **5. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH**

5.1. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish u qaysi tartibda tuzilgan bo'lsa shu tartibda amalga oshiriladi.

5.2. Shartnomada ko'rsatilmagan shartlar amaldagi Fuqarolik kodeksi talablariga rioya qilingan holda belgilanadi va qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda shartnoma qayta tuzilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

## **6. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI**

6.1. Taraflar majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida kelib chiqadigan nizolar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi» to'g'risidagi Qonuni va ushbu shartnomaga asosan hal qilinadi.

6.2. Tovarni to'liq topshirmaganlik uchun Sotuvchi har bir kechiktirilgan kuniga topshirilmagan tovar qiymatining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

6.3. Sifati bo'yicha shartnoma shartlariga javob bermaydigan tovarni topshirganlik, shuningdek butlanmagan tovarni topshirganlik uchun aybdor taraf tovar qiymatining 20% miqdorida jarima to'laydi:

6.4. Tovar haqini o'z vaqtida yoki to'liq to'lamaganlik uchun Sotib oluvchi har bir kechiktirilgan kuniga to'lanmagan summaning 0,4 % miqdorida, lekin ushbu summaning 50 % dan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

6.5. Penya va jarimalarni to'lash taraflarni shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

## **7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

7.1. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budget tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budgeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan kuchga kiradi va **2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.**

7.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxadan beriladi.

7.3. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- tomonlarning kelishuviga muvofiq;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda.

## **8. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR**

8.1. Shartnomaning taraflari, ular tomonidan jalb qilinadigan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tanlanishi lozim.

8.2. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabrdagi PF-6313-sonli Farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

## 9.FORS-MAJOR HOLATLARI

9.1 Tomonlarga bog'liq bo'lmagan, oldindan oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar shu jumladan e'lon qilingan fuqarolik urushi, epidimiyalar, blokadalar, embargolar, zilzilalar, toshqinlar, yong'inlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan holatda majburiyatlarni bajarmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

9.2. Taraflar o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarda majburiyatlarni bajara olmasalar, ushbu holat yuzaga kelgan vaqtdan 3 kun ichida boshqa tarafni yozma ravishda ogohlantirishi kerak.

## 10. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

10.1. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro kelishuv asosida, agar taraflar kelisha olmasalar, bu borada yuzaga kelgan nizolar O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni va Fuqarolik kodeksiga asosan iqtisodiy sud tartibida hal qilinadi.

## 11 TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

### "Sotuvchi"

#### "ORIENT XAUS STROY MARKET" MCHJ

(Tovar yetkazib beruvchining yoki xizmat ko'rsatuvchining nomi)

Manzil: Buxoro viloyati Peshku tumani

Tel./faks +998914125214

h/v 20208000605084785001

Bank nomi: Uz sanoat Qurulish bank

MFO 00086

OKONX 43299

STIR 306469993

### "Sotib oluvchi"

#### Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi

(budjetdan mablag' oluvchi tashkilotni nomi)

Manzil: Shofirkon tuman Mirzoqul MFY

Tel./faks 50-2-33-39

sh/h\* 100022860062587065200110004

budjetdan mablag' oluvchi STIR: 201114223

OKONX:90211

G'aznachilik bo'linmasi nomi: Shofirkon tuman

bo'yicha G'aznachilik

G'azna h/v: 23402000300100001010

Bankning nomi: Toshkent sh. Markaziy bank


MFO:

00014


G'aznachilik bo'linmasi STIR 201122919

Rahbar



  
S.Xotamov

Rahbar \_\_\_\_\_ H.Yakubov

	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	XALIM YAKUBOV MAXMUDOVICH
	Imzolangan sana	17 avg 2022 15:14
	Hujjat kodi	<b>XV4250262467</b>
	Hulosa kodi	<b>QG1340038780</b>

## **YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA**

### **YURIDIK XULOSA**

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi: Oldi-sotdi shartnomasi.

Shofirkon tuman obodonlashtirish boshqarmasi hamda "ORIENT XAUS STROY MARKET" MCHJ o‘rtasida tuzilgan 103 340 000(Bir yuz uch million uch yuz qirq ming) so‘mlik oldi-sotdi shartnomasi tuzish haqida.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:

Shofirkon tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022-yil 17-avgust sanasida ishlab chiqilgan va markazga yuridik xulosa uchun taqdim etilgan.

Loyiha tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan ilova hujjatlar asosida ko‘rib chiqildi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti**



**B.Saidov**